O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Rektor ___________ Sh.Sirojiddinov
2023-yil "___" 28-avgust

# MUMTOZ TARIXIY POETIKA

fanining o'quv dasturi (sillabusi)

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 230 000 – Tillar |
| **Magistratura mutaxassisligi:** | 70230104 - Adabiyotshunoslik (Adabiyot nazariyasi) |

Toshkent-2023

| Fan/modul kodi | Fan/modul turi | Ta'lim tili | Ishlab chiqilgan o'quv yili |
|---|---|---|---|
| 102MTP 2-7 | majburiy | o'zbek | 2023/2024 |

| Semestr | Har bir semestrdagi modulning nomi | ECTS - Kreditlar | Haftalik dars soatlari | O'quv mashg'ulotlari (soat) | | | | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Jami: | ma'ruza | seminar | amaliy | laboratoriya | | |
| 3 | Adabiyotshunoslikka oid fanlar tizimida tarixiy poetikaning mohiyati va o'rni | 7 | 6 | 90 | 44 | 0 | 46 | 0 | 120 | 210 |
| | Jami: | 7 | 6 | 90 | 30 | 0 | 30 | 0 | 120 | 210 |

## 1. FANNING MAZMUNI

**Fanni o'qitishdan maqsad** – mumtoz tarixiy poetikaning nazariy muammolarini o'rganish, milliy adabiyot tarixini nazariy aspektda o'rganish va uning madaniy va ma'naviy ildizlariga oid muhim muammolarni tahlil qilish ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Badiiy asarlarni va adabiy namunalarni tarixiy-nazariy aspektda o'rganish orqali talabalarning dunyoqarashi va ilmiy tafakkurini kengaytirish nazarda tutilgan.

**Faning vazifasi** – mumtoz tarixiy poetika fanining dolzarb muammolari, adabiy madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi kabi masalalar to'g'risida ma'lumot berishi bilan dolzarbdir. Jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda ushbu fan muammolarining milliy ma'naviyat va qadriyat masalalari bilan chambarchas bog'liqligi muhim ahamiyatga ega. Zotan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil qilish haqida Prezident farmonida "o'zbek tili va adabiyotini, uning o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy, falsafiy-estetik asoslarini, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash" asosiy vazifalardan biri etib belgilangan edi. Shu bois ajdodlar merosining tarixiy poetika asosida o'rganilishi talabalarni davr talablariga javob beradigan malakali kadrlar qilib tarbiyalashga katta xizmat qiladi.

## 2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

– mumtoz poetikaning vazifalarini aniqlash va uni adabiy-badiiy jarayonning tarixiy xususiyatlarini o'rganishga qaratish, milliy adabiyot tarixining nazariy



masalalari bilan talabalarni tanishtirish va ulardan muhim xulosalar chiqara bilish, tarixiy, adabiy va ilmiy asarlar ***haqida bilimga ega bo'lishi;***

- talabalarda badiiy matn mohiyatini chuqurroq anglash uchun mumtoz janrlarni tadqiq etish ko'nikmasini hosil qilish, mavjud matnlarni tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish ko'nikmasini shakllantirish, o'zbek mumtoz adabiyotining tarixiy ildizlari va namunalarini tarixiy poetika masalalari bilan aloqadorlikda o'rganishga kirishish ***ko'nikmasiga ega bo'lishi;***

– talabalarga o'zbek mumtoz adabiyotining namunalarini Sharq va jahon adabiyoti kontekstida qarash lozimligini uqtirish, egallangan bilim va malakani xalq ma'naviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tatbiq etish ***malakasiga ega bo'lishi kerak.***

## 3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

- ma'ruzalar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

## 4. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

### TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarning bilimini baholash tartibi O'zbekiton Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

**1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.**

**Oraliq nazorat:** O'tilgan mavzular asosida yozma shaklda o'tkaziladi.

**Yakuniy nazorat:** Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma shaklda o'tkaziladi.

***Izoh:*** *Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.*

*Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.*

*Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muyyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.*

**2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:**

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho;**

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **2 (qoniqarsiz) baho** bilan baholanadi.

## 5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

### 3-SEMESTR

1. **Ma'ruza mashg'ulotlari**

Ma'ruza mashg'ulotlari mul'timedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akadem guruhlar uchun o'tiladi.

| № | Ma'ruza mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | | **1-bob (modul). Tarixiy poetikaning predmeti.** | |
| 1 | Adabiyotshunoslikka oid fanlar tizimida tarixiy poetikaning mohiyati va o'rni | Nazariy poetika, tarixiy poetika va adabiyot tarixi. Tarixiy poetikaning predmeti. Tarixiy poetikaning metodi.<br>Mumtoz tarixiy poetika shakllangan davr va uning asoschilari. A.N.Veselovskiyning "Tarixiy poetika" asari va uning predmeti. Tarixiy poetikaning maqsad va vazifalari. Tarixiy poetika mumtoz adabiyotning nazariy tarixi ekanligi (Yu.B.Borev). Tarixiy poetikani davrlashtirish. | 4 |
| 2 | Sinkretizm davri poetikasi | Sub'ekt sinkretizmi manbalari. Sub'ekt sinkretizmi davrida so'z. Obraz genezisi va uning kelib chiqish shakllari masalalari. Obrazli tafakkur evolyusiyasi: ikki a'zoli va ko'p a'zoli parallelizm. Ko'chimlarning ilk shakllari paydo bo'lishi. | 4 |
| 3 | Sinkretizm davrida syujet. Syujetlar poetikasi | Motiv va syujet. Qahramon va syujet. Turkumlangan syujet. Sinkretizm davrida adabiy turlar va ularning paydo bo'lishi haqidagi qarashlar: san'at va adabiy turlar munosabati. She'r, epos, drama va ularning ilk | 2 |



| | | | |
|---|---|---|---|
| | | badiiy jarayondagi o'rni (A.N.Veselovskiy, Ye.M.Meletinskiy). | |
| | | **2-bob (modul). Tarixiy poetikada mifologiya va yozma adabiyot** | |
| 4 | Syujetlarni o'rganishga oid muhim nazariyalar | Mifologik nazariya va bu nazariyaning vakillari: Grimm, Kun, Maks Myuller. "O'zlashtirish nazariyasi" va bu nazariyaning vakillari: Koyler, Paris, Koskuin. Etnografik nazariya. | 2 |
| 5 | Badiiy modallik poetikasi | Badiiy modallik poetikasi tamoyillari. Badiiy modallik poetikasida obrazning o'ziga xosligi. Nasriy va she'riy nutq. M.M.Baxtinning bir tomonlama "ikki ovozli" va "ko'p tomonlama" ikki ovozli so'z haqidagi qarashlari va tasnifi. Badiiy modallik va obrazli til munosabatlari. | 2 |
| 6 | Mif poetikasi | Ilk mifik tafakkurning xususiyatlari, ibtidoiy inson va tashqi olamning o'xshashligi. Arxaik miflar, xalq og'zaki ijodi, ilk yozma manbalar, mumtoz adabiyot namunalari tarixiy poetikaning ob'ekti sifatida. | 4 |
| 7 | Ramziy obrazlar va mif munosabati | E.Kassirerning bu haqdagi nazariyasi. A.A.Potebnyaning ramziy obrazlar, metafora haqidagi qarashlari. A.A.Potebnyaning ramzlarga, umuman ko'chimlarga poetik an'analar nuqtai nazaridan bergan bahosi (Presnyakov, s.73). A.F.Losevning allegoriya va ramz haqidagi qarashlari, ramzning turli qatlamlari, uning "ramziy mifologiya"ga oid qarashlari. | 4 |
| 8 | Tarixiy poetikada mifologiya va yozma adabiyot. | Xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotning asosi sifatida. Xalq og'zaki ijodi va ilk yozma adabiyot poetikasi yaxlitligi. Yozma adabiyotda doston janriga asos bo'lgan miflar. Epik asarlar tarkibidagi mifologik unsurlar. | 2 |
| 9 | Qadimgi Sharq adabiyoti poetikasi masalalari | Qadimgi Misr, shumer, yahudiy va boshqa sharq xalqlari adabiyoti poetikasi masalalari. "Avesto" mif va yozma adabiyot munosabatini o'zida mujassam qilgan asar sifatida. Zardushtiylikning Sharqdagi qadimiy yodgorliklar (Shumer yodgorliklari, Yangi Ahd va b.) bilan o'zaro aloqadorligi masalasi. Qadimgi turkiy yodgorliklar va "Avesto"dagi mifologik tasavvurlar uyg'unligi. | 4 |
| 10 | Janrlar poetikasi | Janrlar kanoni va janrlar orqali fikrlash. Janrlarning eydetik bosqichga mansubligi. Qat'iy va erkin janrlar shakllari: g'azal, ruboiy, tuyuq, xokku va b. Adabiy janrlarning tarixiy kategoriyaga mansubligi. Qadimgi turkiy adabiyotda janrlar poetikasi. | 2 |
| 11 | Ilk arab adabiyoti janrlari poetikasi | **Ilmi adabning** shakllanishi va tarkibi. Ilmi adab ***adab madaniyati*** ta'sirida paydo bo'lgani. Hind, arab, fors va | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | turkiy adabiyotda adab adabiyotining shakllanishi va o'ziga xos jihatlari. Adab adabiyotining vakillari: al-Johiz, Ibn Qutayba, Abu Xayyon at-Tavhidiy. "Fununu-l-balog'a"da poetikaning asosiy masalalari: adabiy nav'lar va she'riy janrlar, aruz, qofiya, balog'at ilmlari. **Ilmi bade'** tarixiy poetikaning predmeti sifatida ("Hadoyiqu-s-sehr", "Badyi'u-s-sanoe'"). Aruz risolalarining tarixiy poetika shakllanishidagi o'rni (Alisher Navoiy va Bobur). **Tazkirachilik tarixida** ijodkor shaxsiyati va adabiy jarayon muammolari ("Yatimat ad-dahr"). Tazkiralarda adabiy muhit, adabiy janrlar va ijodkor shaxsiyati, ijod mas'uliyati masalalari ("Muzakkiri ahbob" va b.). Tazkiralarda janrlar tasnifi (Davlatshoh Samarqandiydan Ahmad Tabibiygacha). | |
| 12 | Mumtoz adabiyotshunoslikda tarixiy poetikaning joriylanishi | Rashididdinning "Jomeu-t-tavorix" asari, asardagi turkiy xalqlar tarixiga oid afsonalar va hikoyatlar; hikoyatlarda tarixiy shaxslarga ijodkor munosabati. Hikoyatlarda badiiylik mezonlari. "Jomeu-t–tavorix" va "To'rt ulus tarixi"da hikoyat janridagi o'ziga xosliklar. Hikoyatlarda yrim tarixiy shaxslarning ideallashtirilishi va tarixiylik tamoyillari. | 4 |
| 13 | Tarixiy manbalar va adabiy janrlar munosabatlari. Hikoyatlar poetikasi | Tarixiy manbalarda kichik janrlar, ularning badiiy ahamiyati. Janrlar tavsifi, hikoyat janrining asardagi o'rni va vazifasi, poetikasi. | 2 |
| 14 | Turkiy poetika | Turkiy poetika haqidagi qarashlar (A.F.Korsh, T.Kovalskiy, I.V.Stebleva, V.M.Jirmunskiy va b.). Turkiy she'riyatning paydo bo'lishi, ritm va she'rning tovush tuzilishi. Turkiy she'riyat va qiyosiy-tarixiy metod, bu metodning tarixiy poetikada tutgan o'rni. Sharq poetikasi va G'arb poetikasiga oid asarlarda qiyosiy-tarixiy metodning yoritilishi. Qiyosiy-tarixiy metodning adabiyotshunoslikning boshqa metodlari bilan aloqasi. | 4 |
| | | | **44 s.** |

**2. Seminar mashg'ulotlar**

Seminar mashg'ulotlari multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem. guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mavzuga mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.



| № | Seminar mashg'ulot mavzulari | Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|
| | **1-bob (modul). Qadimgi turkiy yodgorliklar poetikasi** | | |
| 1 | Qadimgi turkiy yodgorliklarning formal-poetik xususiyatlarini o'rganish. | O'rxun-Yenisey yodgorliklari matnini o'qish, tahlil qilish. | 2 |
| 2 | Moniylik mifologiyasida ramziy obrazlar talqini. | Moniylik oqimidagi adabiyotda doimiy kultlarni o'rganish | 2 |
| 3 | Buddaviylik oqimidagi adabiyotlarning matniy xususiyatlarini o'rganish. | "Oltin yorug'" asarini o'qish, tahlil qilish | 2 |
| | **2-bob (modul). Tarixiy obrazlar va ularning taraqqiyoti** | | |
| 4 | Beruniyning "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Mineralogiya" asarlaridagi rivoyat, afsona va hikoyatlar tahlili. | Asardagi kichik janrlarni o'rganish, asardagi o'rnini aniqlash. Shu yo'nalishdagi tadqiqotlar bilan tanishish. | 4 |
| 5 | Tarixiy obrazlar va ularning taraqqiyoti (Jome' ut-tavorix" va "To'rt ulus tarixi"dagi O'g'uz xoqon shaxsi va "O'g'uznoma" dostonining qiyosiy tahlili) ni o'rganish. | "Jome' ut-tavorix" va "To'rt ulus tarixi", "O'g'uznoma" asarlarini o'qish. | 4 |
| 6 | "Yusuf va Zulayxo" dostoni hamda diniy manbalardagi Yusuf siymosini qiyosiy o'rganish. | Diniy manbalardagi va badiiy adabiyotdagi Yusuf qissasini o'qish va tahlil qilish. | 4 |
| 7 | Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni asosida badiiy tasvir vositalari poetikasini o'rganish | Asarni o'qish, badiiy tasviriy vositalarini belgilab chiqish. (Munozarali dars metodidan foydalaniladi). | 4 |
| 8 | Agiografik asarlardagi badiiy tasvir vositalari poetikasini o'rganish. | "Nahj ul-farodis", "Qisas ar-Rabg'uziy" asarini o'qish. | 4 |
| | **3-bob (modul). O'rta Osiyodagi manbalar** | | |
| 9 | O'rta Osiyoda X-XII asrlarda arab adabiyotshunosligi masalalari. | O'rta asar arab adabiyotida individual she'riyatning boshlanishi. | 4 |
| 10 | O'rta Osiyoda fors adabiyotshunosligi masalalari. | Hind, arab, fors va turkiy adabiyotda adab adabiyotining shakllanishi va o'ziga xos jihatlari. | 6 |
| 11 | O'zbek adabiyotshunosligida tarixiy poetika masalalarining o'rganilishi. | "Fununu-l-balog'a"da poetikaning asosiy masalalari: adabiy nav'lar va she'riy janrlar, aruz, qofiya, balog'at ilmlari. Ilmi bade' tarixiy poetikaning | 4 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | predmeti sifatida (“Hadoyiqu-s-sehr”, “Badyi’u-s-sanoye’”). | |
| 12 | O‘zbek folklorshunosligida tarixiy poetika masalalarining o‘rganilishi. | Shu mavzuga doir tadqiqotlarni o‘rganish. | 4 |
| 13 | Turkiy xalqlar sehrli ertaklari poetikasi masalalari. | Epik asarlar tarkibidagi mifologik unsurlar. | 4 |
| | | **Jami:** | **46 s.** |

### 3. Mustaqil ta'lim ishlari

"Mumtoz tarixiy poetka" fanini o‘rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy masalalarni echishda ko‘nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o‘qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo‘shimcha adabiyotlarni o‘rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy va seminar mashg‘ulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko‘rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

| № | Mustaqil ta'lim mavzulari | O‘quv mashg‘ulot turi nomi | Qisqacha tavsifi (kalit so‘zlar) | Soatlar hajmi |
|---|---|---|---|---|
| | **1-bob (modul). Ilk tafakkur mahsuli** | | | |
| 1 | “Mifы narodov mira” 1 va 2 jildlaridan “Avesto”dagi mifologik obrazlar va turkiy mifologiyaga oid maqolalarni sharhlash. | Ma’ruza | Adabiyotlar bilan tanishish | **30** |
| 2 | Beruniyning “O‘tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobidan islomdan oldingi diniy oqimlarga oid qismini o‘rganish va konspektlashtirish. | seminar | Adabiyotlar bilan tanishish | **10** |
| 3 | I.V.Steblevaning “Razvitie tyurkskix poeticheskix form v X1 veke” (M.: 1971) kitobini o‘rganish | Ma’ruza | Adabiyotlar bilan tanishish | **10** |
| 4 | I.V.Steblevaning “Ritm i smыsl v klassicheskoy tyurkoyazыchnoy poezii” (M.:1993) kitobini o‘rganish va konspektlashtirish. | seminar | Adabiyotlar bilan tanishish | **10** |
| 5 | Devonu lug‘atit-turk” bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlarning bibliografiyasini tuzish va muhim tadqiqotlarga annotatsiya yozish. | Ma’ruza | Adabiyotlar bilan tanishish | **10** |
| 6 | “Jome’ ut-tavorix”dan O‘ktoyxonga oid hikoyatlarni o‘rganish va tasnif qilish. | seminar | Adabiyotlar bilan tanishish | **10** |



| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 7 | “Qutadg‘u bilig” bo‘yicha yaratilgan tadqiqotlarning bibliografiyasini tuzish va muhim tadqiqotlarga annotatsiya yozish. | Ma’ruza | Adabiyotlar bilan tanishish | **10** |
| 8 | Mumtoz adabiyot bo‘yicha himoya qilingan nomzodlik dissertatsiyalari avtoreferatlari bilan tanishish va ularga taqriz yozish. | seminar | Adabiyotlar bilan tanishish | **10** |
| 9 | Tarixiy poetikaga oid dissertatsiyalar avtoreferatlariga taqriz yozish. | Ma’ruza | Adabiyotlar bilan tanishish | **10** |
| 10 | Folklor poetikasiga oid avtoreferatlarga taqriz yozish. | seminar | Adabiyotlar bilan tanishish | **10** |
| | | | **Jami:** | **120 s.** |

### 6. FANNING KURS ISHI MAZMUNI

Fan bo’yicha kurs ishi rejalashtirilmagan.

### 7. O‘QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

**Asosiy adabiyotlar**

1. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари Ҳ.Болтабоев талқинида. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
2. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. 1-2 жилд. - Тошкент: Фан, 2005, 2007.
3. Стеблева И.В. Ритм и смысл в тюркоязычной классической поэзии. Москва, “Восточная литература”, 1993.

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

4. Ш. Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси” тўғрисидаги Фармони (Халқ сўзи 2017 йил, 8 феврал).
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида (Халқ сўзи 2017 йил, 21 апрель).
7. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. Москва: Высшая школа, 1989. - с.
8. Бройтман С.Н. Историческая поэтика. Москва, 2001; Теория литературауры: в другах томах. Т.2: Историческая поэтика . Под ред. Н.Д. Тамарченко.- Москва: ACADEMIA, 2004.-368 С.
9. Стеблева И.В. Жизнь и литература доисламских тюрков. Москва, “Восточная литература”, 2007.
10. Историческая поэтика. Литературные эпохи и типы художественного сознания. – Москва: 1994.

11.Семантика образа в литературах Востока. – Москва, "Восточная литература", 1998.
12.Теория жанров литератур Востока. – Москва, "Восточная литература", 1985.
13.Холмўминов Ж., Ҳазраткулов Ж. Форсий адабиётнинг жаҳон адабиётидаги ўрни. Тошкент. "YANGI NAŞR": 2012.
14.Болтабоев Ҳ. Мумтоз сўз кадри. – Т.: Адолат, 2004.
15.Историческая поэтика. Итоги и перспективы изучения. – Москва, 1986.
16.Рахмонов Н, Ўзбек адабиётини даврлаштириш масалалари. Т.: MUMTOZ SO'Z .2016

**Internet saytlari**

22.http://www.kutubxona.uz
23.http://www.literature.uz
24.http://www.ziyonet.uz
25.http://www.alishernavoiy.uz

## 8. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 202__ yil "__" "______" dagi "___" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

"O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasi mudiri, f.f.d., prof.
N.Jabborov ______________ *(imzo)*

**Tuzuvchi:**
K.Mullaxo'jayeva ______________ *(imzo)*
"O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

**Taqrizchilar:**
To'xliyev B. – TDShU, "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori;
Yusupova D. – ToshDO'TAU, "O'zbek adabiyoti tarixi" kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori.